



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARAQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**



Ro'yxatga olindi:

№ 60220400

26.09.2024

"TASDIQLAYMAN"

San'at va gumanitar fanlar

R. I. Xalimov

2024

GEOARXEOLGIYA

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	220000 – Gumanitar fanlar (Tillardan tashqari)
Ta'lim yo'nalishi:	60220400 – Arxeologiya

Fan/modul kodi GA1204		O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Umumiy (soat)
	Geoarxeologiya	48		72	120

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	I. FANNING MAZMUNI Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda “Geoarxeologiya” fanining shakllanishi va taraqqiyoti, uning tarixiy fanlarni o'rganishdagi o'rni, jahon hamda, mamlakatimiz hududida moddiy-madaniyatlarning o'zaro bog'liqligi va xususiyatlari munosabatlarining shakllanishi haqida bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir. Shuningdek, mazkur fan arxeologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriatni buyurtmachi tashkilot hisoblanuvchi Madaniy meros agentligi Yaxyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya institutiga dala arxeologik tadqiqotlarni amalga oshirishda shu soha bo'yicha to'la qonli bilim ko'nikmasiga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashga o'z mazmuni bilan xizmat qiladi. Fanning vazifasi – talabalarda fanning nazariy va amaliy masalalarini shuningdek, arxeologik manbalar turlari. Arxeologik manbalarning qadimgi davr tarixini yoritishdagi o'rni va ahamiyati. Arxeologik yodgorliklar. Arxeologik yodgorliklar turlari. Aholi manzilgohlari, qabr-qo'rg'onlar majmualari, diniy inshootlar majmualari, ishlab chiqarish bilan bog'lik inshootlar va majmualarini o'rgatishdan iborat.

Fan mazmuni
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)
II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)
Kirish. Fanning maqsadi va vazifalari
Geoarxeologiyaning kelib chiqishi va uning taraqqiyoti, geoarxeologiya atamasining vujudga kelishi va fan sifatida shakllanishi. Geoarxeologiya qanday ma'noni anglatadi? Geoarxeologiyaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Geoarxeologiya mos

so'zmi? Geoarxeologiya atamasidan foydalanishning qanday farqi bor? Intensiv geoarxeologiya. Geoarxeologiya qaerga mos keladi? Fanning dolzarb masalalari.

Yotqiziqlar

Yotqiziqlarning turlari, ularning xususiyatlarini tushunish va tasvirlash.
Yotqiziqlarning tarkibi, daryo va dengizorti yotqiziqlari va cho'kmalarning tuzilishi.
Kimyoviy yotqiziqlar. Organik moddalarning yotqiziqlar bilan bog'liqligi.
Arxeologik yotqiziqdarga doir bilimlar

Stratigrafiya

Stratigrafiya - er tarixi ustida ishlash. Er va uning shakllarining rivojlanishida turli materiallarning izchil ko'rinishi. Stratigrafiyada qatlamlarning adabiy ta'rifi.
Magmatizm ta'siri. Iqlim va dengiz sathining o'zgarishi. Metamorfizm. Cho'kindi jinslarning tarixiy kelib chiqishi. Organik evolyusiya haqida bilimlar.

Tuproq va uning hosil bo'lishi.

Tuproqning geoarxeologiyadagi o'rni. Tabiatda va arxeologiyada tuproqning ahamiyati. Inson va boshqalarning tuproqqa ta'siri. Besh xil tuproq omili.

Gidrologik tizimlar : tepalik yon bag'irlar, daryolar va ko'llardagi yotqiziqlar
Yon bag'irlar. Soylar. Ko'llar va botqoqliklar. Qiyalik yotqiziqlar. Tepalik yon bag'irlar va qiyalikdagi yotqiziqlarning turli arxeologik yodgorliklarni saqlab qolishdagi o'rni. Tepalik yon bag'irlar va qiyaliklarning arxeologiya bilan bog'liq jihatlari. Daryo va ko'llarning geoarxeologik omillari. Yopiq harakatsiz soylarga ko'plab suv oqimlarining quyilishi. Nam erlar va ko'llarni hosil bo'lishi. Ko'ldagi cho'kindi jinslarni hosil bo'lishi. Daryo va ko'llarning assosiy aspektlariga bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan geoarxeologik jihatlari.

Eol yotqiziqlar va geoarxeologik sharoitlar

Er yuzi va unga yoqin bo'lgan joylarda atmosfera. Suv organizmlar ta'sirida tog' jinslarining emirilish. Tog' jinslari tuzilishining kimyoviy o'zgarish jarayonlari. Rel'ef hosil qiluvchi omillar va rel'efning geoarxeologik jarayonlari bilan o'zaro aloqalariga bog'liq hodisalar.

Okean va dengiz sohillarining geoarxeologik jarayonlari

Okean va dengiz sohillarining geoarxeologik jarayonlari. Arxeologik tushuncha sifatidagi ahamiyati. Sohillarning morfologik tuzilishi. Dengiz darajasi dinamikasi. CHo'kindi turlari. Inson tomonidan qirg'oq resurslaridan foydalanilishi. Palaeo-dengiz o'zgarishlar darajalari. Platformalarning ko'tarilishi va faoliyati.

Er osti suvlarining g'orlar shakllanishidagi o'rni

Er po'stining tog' jins qatlamlari yoriqlari. G'ovaklarning paydo bo'lishi va joylashuv omillari. Er yuzasidan pastda tarqalgan er osti suvlarining paydo bo'lishi, joylashish sharoiti, harakat qonuni. Er osti suvllari ta'sirida er qobig'ida bo'shliqlar, o'pirilishlar, g'orliklar hosil bo'lishi. Rel'ef shaklining o'zgarishi oqibatida inson xo'jaligini suv bilan ta'minlashdagi o'rni. Er osti suvlarining katta zarar keltiruvchi omillari.

Biogen va texnogen jarayonlarning geologik muhitga ta'siri

Hayvonot va o'simliklar faoliyati natijasida hosil bo'lgan rel'ef shakllari. Insoniyatning injener-xo'jalik faoliyati natijasida atrof muhitga ta'siri. Insoniyatning qishloq xo'jalik faoliyati natijasida yangi erlarni o'zlashtirilishi. Qazilma boyliklar konidan foydalanilish. Inson qurgan injenerlik inshootlarining er yuzasi rel'efini murakkablashtirganligi. Antropogen rel'ef shakllari.

Inson madaniyatining atrof - muhitga adabtatsiyasi

Inson muhitining rivojlanishning ma'lum bir ekologik sharoitga moslashganligi. Er yuzining ayrim mintaqalari tabiiy muhiti o'zgarmaganligi tufayli qadimda insoning yashashi uchun sharoit tug'dirganligi. Insoniyat taraqqiyotida g'or-ungurlarning ahamiyati.

III. Mashg'ulotlar shakli: seminar (S)

S1	Kirish. Fanning maqsadi va vazifalari
S2	Yotqiziqlar
S3	Stratigrafiya
S4	Tuproq va uning hosil bo'lishi
S5	Gidrologik tizimlar I: tepalik yon bag'irlar va qiyalikdagi yotqiziqlar

S6	Gidrologik tizimlar II: daryolar va ko'llar
S7	Eol yotqiziqlar va geoarxeologik sharoitlar
S8	Okean va dengiz sohillarining geoarxeologik jarayonlari
S9	Er osti suvlarining g'orlar shakllanishidagi o'rni
S10	Biogen va texnogen jarayonlarning geologik muhitga ta'siri
S11	Inson madaniyatining atrof - muhitga adabtatsiyasi
Labaratoriya	
L1	Yotqiziqlarni tarkibi bo'yicha labaratoriya mashg'ulotlari
L2	Stratigrafiyani aniqlash bo'yicha labaratoriya mashg'ulotlari
L3	Tuproq tarkibi bo'yicha labaratoriya mashg'ulotlari

MUSTAQIL ISH TA'LIMNI BAJARISH BO'YICHA TALABLAR:

1-Mustaqil ta'lim topshiriqlari	
1. MT	Geoarxeologiya fani tarixi
2. MT	Yurtimiz hududida geoarxeologiya sohasida erishilgan yutuqlar.
3. MT	Arxeologik yodgorliklarda qatlamlar ustida ishlash.
4. MT	Tuproq va uning hosil bo'lishi
5. MT	Gidrologik tizimlar I: tepalik yon bag'irlar va qiyalikdagi yotqiziqlar
6. MT	Geoarxeologiya sohasida qo'llaniladigan yangi zamonaviy texnologiyalar.
7. MT	O'rta Osiyoning o'zlashtirilgan tuproqlari
8. MT	Okean va dengiz sohillarining geoarxeologik jarayonlari
9. MT	Er osti suvlarining g'orlar shakllanishidagi o'rni
10.MT	Biogen va texnogen jarayonlarning geologik muhitga ta'siri
11.MT	Inson madaniyatining atrof - muhitga adabtatsiyasi
12.MT	Eksperimental geoarxeologiya
13.MT	Arxeologik jihatdan tuproq tarkibini o'rganish metodlari
14.MT	Paleotabiat muhitni rekonstruksiya qilish
15.MT	Yaqin Sharq, Shimoliy Amerika va Yevropaning o'zlashtirilgan tuproqlari
16.MT	Shamolning geoarxeologik ishi
17.MT	Yer sayyorasini shakllanishida ilmiy nazariyalar
18.MT	Gallaktika tushunchasi
19.MT	Yer sayyorasini tuzilishi
20.MT	Yer sayyorasini o'rganishda qadimgi va zamonaviy ilmiy bilimlarni solishtiring
"Geoarxeologiya" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, O'rta Osiyo miqiyosida dastlabki tuzilgan arxeologik ekspeditsiyalari	

tarixiga oid mavzuda arxeologik ekspeditsiyalar tarixi haqida talabada bilim ko'nikmasini shakllantirish e'tiborga olingan. Masalan, O'zbekiston, Janubiy Turkmaniston hududida dastlabki arxeologik tadqiqotlarni olib borgan ekspeditsiya hisoblandi. Bu ekspeditsiya dastlab M.Y.Masson rahbarligida arxeologik obyektlarni o'rgangan bo'lsa, keyingi yillarda aniqrog'i o'tgan asr 50-yillar oxiridan V.M.Masson rahbarligida keng ko'lamda arxeologik qazuv ishlari amalga oshirilgan. Ushbu mavzu haqida keyingi tadqiqotlar olib borgan ekspeditsiya faoliyati ham keng ma'lumotlar berib ular haqida ham o'quvchilar bilim ko'nikmasiga ega bo'ladi. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • "Geoarxeologiya" fanidan talabalar, ushbu davrda tarixiy tadqiqotlar ko'lamini, davrning o'z dolzarb muammosini tadqiqotlarning metodologik asoslari haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo'lishi</i>; • Talaba "Geoarxeologiya" fanining alohida fan sifatida mavqeyiga ega bo'lishi, o'rganilayotgan davr va bugungi kun tarix fanining dolzarb muammolarini to'g'ri talqin qilish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>. • Talaba o'zlashtirayotgan fan bo'yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish to'plangan tarixiy tajribani ilmiy va pedagogik amaliyotda samarali qo'llash <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • munozara, • o'z-o'zini nazorat. • "Aqliy hujum", • "Muammo"; • Krossvord • Annogrammalar • Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	VII. Kreditni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

